



**“ANTROPOGEN LANDSHAFTSHUNOSLIK:
TADQIQOT METODLARI, MODERNIZATSIYA
VA BARQAROR RIVOJLANISH”**





xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
Samarqand sh., 2024 yil 17-18 may

**«АНТРОПОГЕННОЕ ЛАНДШАФТОВЕДЕНИЕ: МЕТОДЫ
ИССЛЕДОВАНИЯ, МОДЕРНИЗАЦИЯ
И УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ»**

международная научно-практическая конференция
г.Самарканд, 17-18 мая 2024 г.

**“ANTHROPOGENIC LANDSCAPE SCIENCE:
RESEARCH METHODS, MODERNIZATION AND
SUSTAINABLE DEVELOPMENT”**

International scientific-practical conference
Samarkand, May 17-18, 2024



O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

O‘zbekiston Geografiya jamiyati

Pomoriya Akademiyasi (Slupsk, Polsha)

Oltoy davlat universiteti

Shimoliy Kavkaz Federal universiteti

Chuvash davlat universiteti

O‘sh davlat universiteti



**“ANTROPOGEN LANDSHAFTSHUNOSLIK:
TADQIQOT METODLARI, MODERNIZATSIYA VA BARQAROR
RIVOJLANISH”**

**mavzuidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari
Samarqand, 2024 yil 17-18 may**

Samarqand - 2024

«Antropogen landshaftshunoslik: tadqiqot metodlari, modernizatsiya va barqaror rivojlanish» xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari (Samarqand, 2024 yil 17-18 may). – Samarqand, 2024. – 421 b.

Tahrir hay’ati:

Abbasov S.B., g.f.d. professor (mas’ul muharrir);

Izzatullaev Z., b.f.d.professor; **Axmadaliyev Y.I.**, g.f.d. professor; **Boymirzaev K.M.**, g.f.d. professor; **Ravshanov A.X.**, g.f.f.d. dotsent; **Ibragimov L.Z.**, g.f.d. professor; **Sabirova N.T.**, g.f.f.d. dotsent; **Mamajonov R.I.**, g.f.f.d. (PhD); **Usmonov M. R.**, g.f.n., dotsent; **Qobilov E.E.**, t.f.d., professor; **Meliyev B.A.**, g.f.f.d. dotsent.

To‘plamda Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida 2024 yil 17-18 may kunlari bo‘lib o‘tgan **«Antropogen landshaftshunoslik: tadqiqot metodlari, modernizatsiya va barqaror rivojlanish»** xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilarining ilmiy maqolalari chop etilgan. Konferensiya O‘zbekiston Geografiya jamiyati, Oltoy davlat universiteti, Shimoliy Kavkaz federal universiteti, Chuvash davlat universiteti, Pomoriya Akademiyasi (Polsha), O‘sh davlat universiteti bilan hamkorlikda o‘tkazildi. Maqolalar mavzulari antropogen landshaftshunoslik tadqiqotlarda GIS texnologiyalari va innovatsiyalarni qo‘llash, antropogen landshaftlarni tadqiq etishda zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy geografik tadqiqotlar, global iqlim o‘zgarishi sharoitida suv resurslaridan foydalanish va landshaftlar modernizatsiyasi, atrof-muhit monitoringi va landshaftlar ekologiyasi masalalariga bag‘ishlangan. Ushbu maqolalar to‘plami geograf mutaxassislar, talabalar, magistrantlar, doktorantlar, o‘qituvchilar, shuningdek, barcha zamonaviy geografiya faniga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Mazkur to‘plamga kiritilgan maqolalarning mazmuni va statistik ma’lumotlarining to‘g‘riligi uchun mualliflar javobgardir.

Hozirda ustoz maktabini ko'rgan maktabini yaxshi biladilar. Geografiya fanlari doktori professor S.B. Abbosov, Geografiya fanlari doktori Dsc K.M.Boymirzayev, Geografiya fanlari doktori Dsc O Qo'ziboyeva, Geografiya fanlari doktori Q Yarashov ustozlarni alohida ko'rsatish mumkin.

Ustoz ilmiy-tadqiqotlarining bu qadar sermahsul bo'lishida oilasining ham tinch-totuvligi, domlaning o'zi kabi kamtar, halol, pokiza uy bekasi bo'lganligida deb aytisak xatò bo'lmaydi. Chunki, marhum Hoji onamiz Tamara Kamolovna 65 yillik oilaviy hayot yo'lida ustoz bilan bir kemada yelkadosh suzib kelgan.

Oilada mehribon ota, 2 og'il, 2 qiz, 10 nafar nevara, 18 nafar evara ustoz avlodining davomchilari bo'lib, sekin-asta mustaqil hayotga kirib bormoqda. Bugun ustozimiz Ali Abdulqosimov o'g'il-qizlar, nevara-chevaralar ardog'ida. Farzandlar esa el-yurt xizmatida. Alloh ustozimizga mustahkam sog'lik, oilasiga tinchlik, kasbu-koriga esa xayru-barokat ato etishini tilab qolamiz.

SUG'ORILADIGAN HUDUDLARNING TABIAT KOMPONENTLARIDAN OQILONA FOYDALANISHDA HAVZAVIY KARTALASHTIRISHNING ROLI

Ibroimov SH.I.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti, O'zbekiston

***Annotatsiya.** Maqolada sug'oriladigan hududlardagi kollektor havzalari ilk bor relyef plastikasi usuli asosida tahlil qilingan. Kollektor geotizimida tabiat komponentlari havzaning ichki tuzilishi bilan bog'langan holda tizimli o'zgaradi. Bu o'rinda havzaviy kartalashtirish usuli bo'lgan relyef plastikasining roli katta bo'lib, havzada relyef elementlari ya'ni balandliklar va pastliklar yaqqol tasvirlangan.*

***Kalit so'zlar:** kollektor havzasi, geotizim, relyef plastikasi, tabiat komponentlari, sug'oriladigan hudud, oqilona foydalanish, havzaviy kartalashtirish, struktura, tizimli o'zgarish.*

Роль бассейнового картографирования при рациональном использовании природных компонентов орошаемых территорий

***Аннотация.** В статье впервые проанализированы бассейновых коллекторов орошаемых территорий на основе метода пластики рельефа. В коллекторной геосистеме происходит система изменения природных компонентов, которые они взаимосвязаны с внутренним структурам бассейна. В этом месте очень важна роль пластика рельефа, которые является методом бассейнового картографирования, и в бассейне отчетливо изображаются элементы рельефа - повышения и понижения.*

***Ключевые слова:** бассейн коллектора, геосистема, пластики рельефа, природные компоненты, орошаемая площадь, рациональное использование, бассейновое картографирование, структура, системные изменения.*

The role of basin mapping in the rational use of natural components of irrigated territories

***Abstract.** The article is the first to analyze basin collectors in irrigated areas based on the relief plastic method. In the reservoir geosystem, a system of changes in natural components occurs, which are interconnected with the internal structures of the basin. In this place, the role of relief plastic is very important, which is a method of basin mapping, and the elements of the relief - highs and lows - are clearly depicted in the basin.*

***Key words:** collector basin, geosystem, relief plastics, natural components, irrigated area, rational use, basin mapping, structure, system changes.*

Tizimli yondashuv Yer haqidagi fanlarning, shu jumladan tabiiy geografiyaning eng ilg'or usullaridan biridir. Kompleks tadqiqotlarda tizimli yondashuvni qo'llashning ikki yo'li mavjud: funksional-yaxlit va an'anaviy – tipologik va regional.

Bizning fikrimizcha, relyef plastikasi usuli Amudaryo hozirgi deltasining tabiiy va meliorativ sharoitlarini kompleks tabiiy geografik o'rganishda funksional-yaxlit yondashuvni qo'llashning yagona yo'lidir. Obyektning sug'oriladigan hududlari ilk bor kollektor havzalaridagi paragenetik landshaft komplekslarini hisobga olgan holda tadqiq qilindi.

Kollektor havzalarining paragenetik landshaft komplekslari sug'oriladigan hududlarda eng ko'p tarqalgan funksional-yaxlit tizimdir. Bizga ma'lumki, kollektor havzalarining paragenetik landshaft komplekslari turli yoshdagi kichik deltalarning daraxtsimon strukturasini tashkil qiluvchi elementar landshaftlarning guruhlaridan tashkil topgan. Bu kichik deltalarning daraxtsimon strukturasini geografik omil sifatida tan olingan yer usti suv oqimining faoliyati natijasida hosil bo'lgan va delta geotizimining geologik tarixini aks ettiradi. Kichik deltalarning daraxtsimon strukturasini tabiat komponentlarining holatini va dinamikasini belgilaydi, ya'ni tabiiy-meliorativ komplekslar Yer yuzining daraxtsimon strukturasini bilan chambarchas bog'liqdir.

Sug'oriladigan hududlarning tabiat komponentlaridan oqilona foydalanishda va ularni muhofaza qilishda eng avvalambor kollektor havzalaridagi paragenetik landshaft komplekslarini bir-biri bilan bog'lovchi yer usti suv oqimlarini tasvirlash muhim ahamiyatga ega. Aynan shu oqimlar Yer-suv resurslarining holatini va sifatini belgilaydi. Yer resurslaridan oqilona foydalanishda tuproq xillarining relyef elementlari bilan birikuviga alohida e'tibor berish lozim. Boshqacha so'z bilan aytganda, tuproqlarning kichik hududlarda tabaqalanishida relyefning strukturasini bilan aloqadorlikda bo'lgan geokimyoviy landshaftning elementlari alohida rol o'ynaydi. Kollektor havzalarining relyef plastikasi kartalari obyektida mavjud bo'lgan turli relyef tiplarini (allyuvial tekisliklar, qirlar, qumliklar va boshqalar) tasvirlash bilan chegaralanib qolmasdan, balki ularning o'ziga xos strukturalarini ham ko'rsatadi. Shuning uchun ham relyef plastikasi kartasi asosida tuzilgan yangi tipdagi tuproq qoplamini strukturasini kartalarining amaliyotdagi ahamiyati kattadir, ya'ni bu kartalarda tuproq xillarining relyef elementlari bilan birikuvini aniq ko'rsatiladi. Bunday olib qaraganda, har xil relyef elementlarida tarqalgan tuproqlarning meliorativ holati ham turlichadir, ya'ni tuproqlardan oqilona foydalanishda relyefning qaysi elementida tarqalgan tuproq xillarini bilish zarur. Bu o'rinda “Tuproq qoplamining strukturasini” asarining muallifi V.N.Fridlandning tuproq qoplamining strukturasini haqidagi fikri katta ahamiyatga ega, ya'ni uning fikricha: “Tuproq qoplamining strukturasini haqidagi tushuncha matematika fanidagi struktura tushunchasiga yaqindir”, ya'ni har bir kichik deltaning daraxtsimon strukturasini elementlarida o'ziga xos tuproq xillari hosil bo'ladi va rivojlanadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, tuproqlar Yer yuzasining daraxtsimon strukturasini bilan birikib, turli xil sifatdagi Yer resurslarini hosil qiladi. Shuning uchun kollektor havzasini tashkil qilgan kichik deltalarning paragenetik landshaft komplekslarida nafaqat tuproq qoplamining strukturasini, balki Yer resurslarining sifati ham tabiiy ravishda o'zgaradi. Kichik deltalarning yuqori qismlarida tarqalgan tuproqlar yaxshi suv-fizik xossalarga, yengil mexanik tarkibga va boshqa ijobiy xususiyatlarga ega bo'ladi. Kichik deltalarning quyi qismlarida va ularning tutashgan hududlarida tarqalgan tuproqlar esa salbiy xususiyatlarga ega bo'ladi, ya'ni ular salbiy suv-fizik xossalarga, og'ir mexanik tarkibga va boshqalarga ega bo'ladi. Tuproq qoplamini strukturasini va holatining kichik deltalarida qonunli o'zgarishlari yer resurslaridan oqilona foydalanishda kollektor havzasining ichki strukturasini hisobga olishga imkon tug'diradi, ya'ni tuproqlarning barcha xususiyatlari kollektor havzalarining yuqori qismidan quyi qismi tomon tizimli o'zgaradi. Kollektor havzalarining kartalari o'z navbatida amaliy maqsadlarda havzaviy geokimyoviy usulni qo'llashga imkon yaratadi, ya'ni landshaft geokimyosi fanining “O'zaro bog'liq” tahlilini qo'llash tabiat komponentlarining o'zaro aloqadorligini o'rganishga sharoit yaratib beradi. Boshqacha aytganda, kollektor havzalaridagi paragenetik landshaft komplekslarining o'zaro aloqadorligi yer usti suv oqimlarining yo'nalishini tahlil qilish orqali amalga oshiriladi. Olingan ma'lumotlar Yer resurslaridan oqilona foydalanishda havzaviy kartalashtirish relyef plastikasi usulining ijobiy tomonlarini to'g'ri tasdiqlaydi.

Relyef plastikasi kartalari asosida tuzilgan tuproq qoplamining strukturasini kartalari ilgari tuzilgan tuproq kartalaridan tubdan farq qiladi, ya'ni bu yangi tipdagi tuproq kartalarida tuproq

xillarining relyef strukturasi bilan birikuvi aniq tasvirlanadi. Bu o‘rinda XX asrning mashhur tuproqshunos geograf olimasi M.A.Glazovskyaning quyidagi g‘oyasini misol qilib keltirishimiz juda o‘rinlidir, ya‘ni olimaning fikri bo‘yicha: “Yer tuproq qoplamining strukturasi – bu tuproqlarning relyef elementlari bilan birikuvidir” [1]. Boshqacha so‘z bilan aytganda, relyef plastikasi kartalarida tasvirlangan balandliklar va pastliklar tabiatda mavjud bo‘lgan relyef elementlari bo‘lib, ular tuproq hosil bo‘lish jarayoniga turlicha ta‘sir etadi.

Hozirgi sharoitda mutaxassislar, ya‘ni iqtisodchilar fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish uchun mablag‘lar miqdorini belgilashda ko‘pincha Yer resurslarining holatini va ularning kollektor havzasidagi joylashuvini hisobga olmaydilar. Moliya miqdorini meyorlashtirish bu xo‘jaliklar rivojlanishining buzilishiga olib keladi. Demak, bugungi kunda har bir tuman yoki fermer xo‘jaliklari yangi O‘zbekistonda bozor munosabatlarining yangi bosqichlariga moslashshgan holda, kollektor havzalarining yirik masshtabli relyef plastikasi kartalariga va turli mavzuli kartalarga (tuproq qoplamining strukturasi, tuproqlarning sho‘rlanish darajasi va kimyoviy tarkibi, Yer resurslarini baholash va boshqalar) ega bo‘lishi shart. Bu kartalar Yer resurslaridan havzaviy foydalanish va qishloq xo‘jalik tarmoqlarini rivojlantirish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Qishloq xo‘jalik tarmoqlarini rivojlantirishga bo‘lgan bunday yangicha yondashuv funksional-yaxlitlikni hosil qilgan kollektor havzasidagi har bir xo‘jaliklardan talab qilinadi.

A.K.Urazbayev, D.B.Xursanov o‘zlarining tadqiqotlarida delta geotizimlari landshaft strukturasi hosil bo‘lishida katta rol o‘ynaydigan yer usti suv oqimlarining umumiy geografik strukturalarini tadqiq qilib, ularning ichki tuzilishini ikki guruhga ajratadi: 1. Sug‘orilmaydigan hududlardagi yer usti suv oqimlarining daraxtsimon strukturasi; 2. Sug‘oriladigan hududlardagi, ya‘ni kollektor geotizimidagi yer usti suv oqimlarining havzaviy strukturasi. Biz ham o‘zimizning tadqiqotlarimizda olimlarning fikriga qo‘shilgan holda, har qanday kollektor havzalarida yer usti suv oqimlarining havzaviy strukturasi bo‘ladi va shu bilan birga kollektor havzalaridagi yer usti suv oqimlarining havzaviy strukturasi bir-biridan keskin farq qiladi degan xulosaga keldik. Boshqacha so‘z bilan aytganda, har qanday kollektor havzalari o‘zlarining ichki tuzilishlari bilan farq qilganliklari uchun ham ularning havzaviy strukturalari bir-biridan farq qilishi tabiiy holdir [2].

Bizning tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatadiki, kollektor havzalarida nafaqat Yer resurslarining holati tizimli o‘zgaradi, balki shu bilan birgalikda yer usti suvlarining sifati ham tartibli o‘zgarib boradi. Suv resurslaridan oqilona foydalanishda yer usti suvlarining sifatini bilish ham muhim rol o‘ynaydi. Kollektor geotizimidagi yer usti suvlarining tizimli o‘zgarishi havzadagi tabiat komponentlariga bog‘liq, ya‘ni tabiat komponentlarining kimyoviy tarkibi yer usti suvlarining kimyoviy tarkibiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir etadi. Misol uchun, kollektor tashlama -1 (KT) -1 ning havzasida kuchsiz va o‘rta sho‘rlangan o‘tloqi-taqirli to‘qay, o‘tloqi-taqirli va sug‘oriladigan o‘tloq-taqirli tuproqlari ko‘p bo‘lganligi sababli bu kollektor suvlarining o‘rtacha minerallashuv darajasi 2-2,5 g/l bo‘lsa, KT -4 havzasidagi kuchli va juda kuchli sug‘oriladigan o‘tloq-taqirli tuproqlari bo‘lganligi sababli kollektor suvlarining o‘rtacha minerallashuv darajasi 3-4 g/l, ba‘zi hollarda undan ham ortiq bo‘ladi. Shunga o‘xshash ma‘lumotlarni E.I.Chembarisov, R.T.Xojamuratovalarning (2008) ilmiy asarida ham uchratish mumkin [3].

Havza usuliga asoslangan yer usti suvlarining sifatini tadqiq qilish bizdan yana bir bor kollektor geotizimlarining kartalariga murojaat qilishni talab etadi. Kollektor havzalari kartalarining ahamiyati cheksizdir, ya‘ni ayniqsa suv resurslari cheklangan O‘rta Osiyoda suv zahiralaridan oqilona foydalanishda. Kollektor havzalarining kartalari yer usti suvlarining holatini sug‘oriladigan hududlarda prognoz qilishni ilmiy asoslab beradi. Tabiat komponentlarining tabiiy-meliorativ kartalari majmuasi kollektor havzasidagi barcha tabiat komponentlarining hozirgi holatini har tomonlama to‘g‘ri aks ettiradi. Bu kartalar ichida yer usti suvlarining minerallashuv darajasi va kimyoviy tarkibining kartalari amaliyotda katta rol o‘ynaydi, ya‘ni yer usti suvlarining minerallashuv darajasi va kimyoviy tarkibi yildan-yilga ko‘payib, sifat jihatdan yomonlashib bormoqda. Boshqacha so‘z bilan aytganda, relyef plastikasi kartalari asosida tuzilgan barcha tabiat komponentlarining mavzuli kartasi katta rol o‘ynaydi, ya‘ni relyef elementlarini asos qilib olmagan barcha tematik kartalar bu ma‘lumotlarni tizimli yoritib olmaydi.

Yer-suv resurslarining holatini har tomonlama tadqiq qilish bizlardan yana grunt suvlarining tabiat komponentlariga bo'lgan ta'sirini o'rganishni talab qiladi. Bizlarga ma'lumki, grunt suvlari Yer-suv resurslarining holatini tadqiq qilishda grunt suvlarining rolini o'rganish faqat ijobiy natija beradi. Bu o'rinda mashhur gidrogeolog olim N.I.Xodjiboyevning grunt suvlariga bag'ishlangan “O'zbekiston grunt suvlarining tabiiy oqimi” nomli asari nazariy ahamiyatga ega. Olimning ta'kidlashicha, grunt suvlarining tabiiy oqimi relyef strukturasi bilan bog'langan bo'lib, tabiat komponentlarining sifatini belgilashda asosiy omillardan biridir [4].

Yuqorida aytilganlarning barchasini umumlashtirib, shuni aytishimiz mumkinki, sug'oriladigan hududlarning Yer-suv resurslaridan havzaviy foydalanish o'z navbatida kollektor havzalarida joylashgan har bir xo'jaliklardan yirik masshtabli relyef plastikasi kartasi asosida tuzilgan tabiat komponentlarining mavzuli kartalariga ega bo'lishni taqozo etadi. Bu kartalar Amudaryo hozirgi deltasi sug'oriladigan hududlaridagi tabiat komponentlarining dinamikasini tadqiq qilishda havzaviy usulni, ya'ni havzaviy kartalashtirish relyef plastikasi usulini qo'llashga har tomonlama asos bo'la oladi. Demak, sug'oriladigan hududlarni eng avvalambor kollektor havzalariga ajratish va kollektor havzalaridagi tabiat komponentlarining tizimli ma'lumotlari asosida Yer-suv resurslaridan havzaviy foydalanish hamda ularni muhofaza qilish tabiiy geografiya fanidagi funksional-yaxlitlik usulini qo'llashning metodologiyasini tashkil qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Глазовская М.А. Типы почвенно-геохимических сопряжений // Вестн. МГУ. Сэп. 5. Геогр. - 1969. -25.-С. 3-12.
2. Urazbayev A.K., Xursanov D.B. Amudaryo hozirgi deltasi landshaftlarining strukturasi. – Samarqand. 2020. -138 b.
3. Чембарисов Э.И., Бахритдинов Б.А. Особенности влияния орошения на минерализацию речных вод бассейна Амударьи. – Нукус: Каракалпакстан, 1984. -144 с.
4. Ходжибаев Н.Н. Естественные потоки грунтовых вод Узбекистана. -Ташкент: ФАН УзССР, 1970. 174 с.

NEFT-GAZLI MINTAQALARDA TEXNOGEN LANDSHAFTLARNI O'RGANISHNING MUHIM JIHATLARI

Jankabilov I.X.

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, O'zbekiston

Abdullayev S.I.

Qarshi davlat universiteti, O'zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada neft-gazli mintaqada foydali qazilmalarni qidirish, qazib olish hamda qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazib berish jarayonida tabiiy muhitda yuzaga kelayotgan texnogen landshaftlarning o'ziga xos jihatlari o'rganishning muhim tomonlari bayon etilgan. Shuningdek, geotexsistemalar to'g'risidagi tushunchalar mohiyati ham yoritilgan

Kalit so'zlar: Texnogen, geotexnik sistemalar, texnogen landshaftlar, antropogen modifikatsiya, texnogen kompleks, konservativ komponent.

Важные аспекты изучения техногенных ландшафтов нефтегазовых регионов

Аннотация: В данной статье описаны важные аспекты изучения уникальных особенностей техногенных ландшафтов, возникающих в природной среде в процессе разведки, добычи и переработки полезных ископаемых нефтегазового региона и доставки потребителям. Также объясняется концепция геотехсистем.

Ключевые слова: Техногенные, геотехнические системы, техногенные ландшафты, антропогенная модификация, техногенный комплекс, консервативная компоненты.

МУНДАРИЖА:

ОГЛАВЛЕНИЕ:

CONTENT:

Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети ректори, профессор Рустам Ибрагимович Халмурадовнинг кутлови.....	8
Приветствие Ректора Самаркандского государственного университета имени Шарафа Рашидова, профессора Рустама Ибрагимовича Халмурадова	9
Greetings of the Rector of Samarkand State University named after Sharaf Rashidov, professor Rustam Khalmuradov.....	10

**I-SHO‘BA: ANTROPOGEN LANDSHAFTSHUNOSLIK TADQIQOTLARDAGI GIS
TEKNOLOGIYALARI VA INNOVATSIYALARNI QO‘LLASH**

Abbasov S.B. Mirzoyeva I.E.	Quyimozor - To‘dako‘l suv omborlari atrofi landshaftlarini oqilona tashkil qilish xususida.....	11
Abbasov S.B. Usmanov M.R. Jumaboyev T.J.	O‘zbekiston cho‘l hududlarini ekoturistik rayonlashtirishning ba’zi masalalari.....	14
Alimkulov N.R.	Mirzacho‘lda antropogen ta’sir natijasida geotizimlarda ekologik holatning o‘zgarishiga oid mulohazalar.....	17
Andronache Ion	Using succolarity in geographic research.....	20
Bakieva E. M. Gudkovskikh M.V.	Controversial methodological aspects of aesthetic evaluation of landscapes.....	24
Davronov K.Q.	Antropogen landshaftshunoslik maktabi sardori.....	28
Ibroimov SH.I.	Sug‘oriladigan hududlarning tabiat komponentlaridan oqilona foydalanishda havzaviy kartalashtirishning roli.....	31
Jankabilov I.X. Abdullayev S.I.	Neft-gazli mintaqalarda texnogen landshaftlarni o‘rganishning muhim jihatlari.....	34
Juraqulov X. Jumaboyev T. Juraqulova D. Xojiyev E.	Arid tog‘li o‘lkalarining cho‘llanishi va uning ekologik va sotsial oqibatlarini.....	38
Naimov H.N.	Shimoliy Farg‘ona tog‘ oldi landshaftlarini kartalashtirish masalalari: nazariya, metodika va amaliyoti.....	45
Nazarov M.G. Poyanov J.Sh. Ermo‘minov B.N. Bozorova S.S.	Qashqadaryo viloyati agrolandschaftlarining geografik jihatlari.....	48
Rajabov F.T.	Daryo havzasini tabiiy-xo‘jalik tizimi sifatida tadqiq qilishning bosqichlari.....	51
Raxmatov Yu.B.	Antropogen landshaftlarni tadqiq etishda zamonaviy tabiiy geografik tadqiqotlar.....	54
Sabirova N.T.	Sharqiy Qizilqum cho‘l landshaftlarining transformatsiyasi.....	58
Samyayev A.K.	Quyi Zarafshon tuproq qoplami va uning inson ta’sirida o‘zgarishi.....	60
Sattarov J.B. Turapov M.K. Amirqulov M.D.	Shimoliy Nurota g‘arbiy hududidagi (yariq-suluq maydonining) geologiyasi va ma‘danlashuvining ayrim xususiyatlari.....	64